

“USUL AL-ASHARA” RISOLASIDAGI TAVBA USULINING “QUSH TILI” DOSTONIDA BADIY TALQINI

Ametova Ulbosin Kamiljanovna,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.f.d

E-mail: ametovau84@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 74

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1534>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

tasavvuf, kubraviylik, Najmiddin Kubro, Rizoiy Payvandi, “Qush tili”, o'n to'sha, suluk, tavba, badiiy talqin.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XVIII asr Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Rizoiy Payvandiyning “Qush tili” dostoni tasavvufiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda Najmiddin Kubro asos solgan kubraviylik tariqatining nazariy qarashlari, xususan “Usul al-ashara” risolasida bayon etilgan o'n asosning badiiy talqini o'rganiladi. Tadqiqotda dostonning “o'n to'sha” tizimi bilan “Usul al-ashara”dagi o'n maqom o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shuningdek Qur'oni Karim oyatlari va hadislarining badiiy matndagi funksiyasi ochib beriladi.

Kirish. Har bir xalqning adabiy taraqqiyoti, avvalo, uning ma'naviy merosi, tarixiy tajribasi hamda avlodlar orasidagi uzviy bog'liqlik orqali shakllanadi. Har bir davr adiblari o'z ijodida ulardan oldin yashab o'tgan buyuk allomalar, mutafakkirlar va ustozlarning ilmiy-ma'naviy merosiga tayanadi. Bu jarayon nafaqat adabiy an'ana sifatida, balki millatning ma'naviy davomiyligini ta'minlovchi muhim omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Adabiyot insoniyat tafakkuri, ruhiy kechinmalari va axloqiy qarashlarini ifodalovchi kuchli ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida har bir davrda yangi badiiy shakl va mazmun bilan boyib boradi.

Adabiyotlar tahlili

Tasavvufiy adabiyot va uning nazariy asoslarini o'rganish Sharq adabiyotshunosligida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada Najmiddin Kubro ta'limoti, xususan uning “Usul al-ashara” risolasi tasavvufiy kamolot bosqichlarini tushuntirib beruvchi asosiy manbalardan biri sifatida baholanadi. Ushbu risolada solikning ma'naviy poklanish yo'li o'n bosqich orqali izohlanadi hamda insonning ruhiy kamolot sari intilishi tasavvufiy nazariya nuqtai nazaridan asoslab beriladi [1, 48].

O'zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy g'oyalar epik asarlar orqali keng yoritilgan. Bu jarayonni o'rganishda adabiyotshunos olim B.Valixojayevning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim o'zbek epik poeziyasi tarixini tahlil qilar ekan, tasavvufiy dostonlarda ramziy obrazlar va ma'naviy sayr motivlari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi [2, 166]. Ayniqsa, qush obrazining solik ramzi sifatida qo'llanishi Sharq adabiy an'alariga xos badiiy hodisa sifatida talqin qilinadi.

Rizoiy Payvandiyning hayoti va ijodini o'rganishda M.Imomnazarovning ilmiy izlanishlari muhim manbalardan biridir. Tadqiqotchi “Qush tili” dostoni o'zbek adabiyoti tarixida yetarlicha o'rganilmagan asarlardan biri ekanligini qayd etib, uning qo'lyozma nusxalari asosida dastlabki ilmiy kuzatishlarni olib borgan [3, 76]. Ushbu tadqiqotlar dostonni ilmiy muomalaga kiritishda muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan.

Keyingi yillarda “Qush tili” dostoni ustida olib borilgan eng muhim ilmiy ishlar Sh.Hasanova nomi bilan bog'liq. Olimaning tadqiqotlarida dostonning qiyosiy-tipologik va tekstologik xususiyatlari chuqur o'rganilgan bo'lib, asarning kompozitsiyasi, syujeti hamda tasavvufiy mazmuni ilmiy asosda tahlil qilingan [6, 45]. Shuningdek, u tomonidan tayyorlangan ilmiy nashrda dostonning tarkibi, boblar tizimi va undagi diniy manbalarning qo'llanilishi haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi [4, 369].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda Rizoiy Payvandiyning “Qush tili” dostoni hamda Najmiddin Kubroning “Usul al-ashara” risolasida bayon etilgan tasavvufiy qarashlar qiyosiy-tahliliy asosda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, tasavvuf ta'limotidagi suluk bosqichlari va ularning nazariy talqini ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, doston matnidagi “o'n to'sha” tizimi bilan “Usul al-ashara” risolasidagi o'n maqom o'rtasidagi

mazmuniy va g'oyaviy uyg'unlik aniqlash maqsadida qiyosiy metoddan foydalanildi.

Tadqiqotda matnshunoslik (tekstologik) yondashuvi asosida asarning ayrim boblari va baytlari tahlil qilinib, undagi tasavvufiy timsollar, ramziy obrazlar va badiiy vositalarning funksiyasi ochib berildi. Shu bilan birga, Qur'oni Karim oyatlari hamda hadislarining doston tarkibidagi qo'llanishi hermenevtik va interpretatsion metodlar yordamida izohlandi.

Bundan tashqari, tarixiy-adabiy metod orqali XVIII asr Xorazm adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari va tasavvufiy adabiyot an'analari yoritildi. Mazkur metodlar majmui tadqiqot mavzusini kompleks ravishda tahlil qilish hamda “Usul al-ashara” risolasidagi tavba usulining “Qush tili” dostonida badiiy talqinini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qildi.

Natijalar.

Adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u zamon va makon chegaralarini kesib o'tib, insoniyatning umumiy ruhiy tajribasini ifodalay oladi. Shu bois ham adabiy jarayonlar ko'pincha tarixiy, diniy, falsafiy va tasavvufiy qarashlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Ayniqsa, Sharq adabiyotida tasavvufiy g'oyalar badiiy tafakkur rivojida muhim o'rin tutgan. Tasavvuf islom falsafasi doirasida shakllangan murakkab ma'naviy-ta'limiy tizim bo'lib, u insonning ruhiy poklanishi va ilohiy haqiqatni anglash jarayonini ifodalaydi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, inson faqat tashqi diniy amallar bilan emas, balki ichki ruhiy poklanish orqali ham Haqqa yaqinlashadi.

Tasavvuf nafaqat diniy-falsafiy ta'limot sifatida, balki badiiy tafakkur shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan muhim ma'naviy hodisa sifatida ham qaraladi.

Tasavvuf tarixida turli tariqatlar shakllangan bo'lib, ular insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lini turli usullar orqali izohlaydi. Markaziy Osiyo hududida shakllangan tasavvufiy maktablar – kubraviylik, yassaviylik va naqshbandiylik tariqatlari o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ushbu tariqatlar nafaqat diniy-amaliy hayotda, balki adabiyotda ham muhim iz qoldirgan. Xorazm hududi ham tarixan tasavvuf markazlaridan biri bo'lib, bu hududda ko'plab mashhur mutasavviflar yetishib chiqqan. Najmiddin Kubro asos solgan kubraviylik tariqati aynan Xorazmda shakllangan va keyinchalik butun musulmon olamiga tarqalgan. Sulaymon Boqir'oni bilan birga bu hududlarga kirib kelgan yassaviylik tariqati va keyinchalik Alisher Navoiy ijodi an'analari bilan keng tarqalgan naqshbandiylik tariqati g'oyalari bu hudud adabiy muhitida ham bo'y ko'rsatgan. Bu yerda yetishib chiqqan mutafakkirlar nafaqat diniy-ilmiy sohada, balki badiiy adabiyot rivojida ham muhim o'rin egallagan. Ayniqsa, kubraviylik tariqatining asoschisi bo'lgan buyuk mutasavvif Najmiddin Kubro ta'limoti Xorazm adabiy muhitida chuqur iz qoldirgan.

Najmiddin Kubro tasavvuf tarixida alohida mavqega ega bo'lgan alloma bo'lib, uning g'oyalari keyingi asrlar davomida ko'plab mutafakkirlar va adiblar ijodiga ta'sir ko'rsatgan. Kubraviylik tariqatining

nazariy asoslari, ruhiy kamolot bosqichlari hamda insonning ma'naviy poklanish yo'llari haqida yozilgan asarlar tasavvufiy tafakkur rivojida muhim o'rin tutadi.

Najmiddin Kubroning tasavvufiy qarashlari uning "Usul al-ashara" nomli risolasida mujassam bo'lgan. Mazkur risola tasavvufiy hayotning nazariy asoslarini tushuntiruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda solikning Allohga yetishish yo'lida bosib o'tishi zarur bo'lgan o'n asosiy bosqich izohlanadi.

Najmiddin Kubro ushbu risolaning boshida Allohga eltuvchi yo'llarning soni cheksiz ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, insonni Haq tomon yetaklovchi yo'llar ma'xulotning nafasleri qadar ko'pdir. Najmiddin Kubro tasavvuf yo'llarini uch asosiy guruhga ajratadi:

1. **Tariqi axyor**
2. **Tariqi abror**
3. **Tariqi shuttur**

Ushbu yo'llar orasida tariqi shuttur – ishq va jazba yo'li eng mukammal yo'l sifatida e'tirof etiladi. "Bu yo'llarning tamal qoidalarini esa o'n asosda jamlash mumkin" **[Tasavvufiy hayot. 48 bet]** deyiladi "Usuli ashara"da. Risolada bayon etilgan o'n asos quyidagilardan iborat:

1. Tavba
2. Zuhd
3. Tavakkul
4. Qanoat
5. Uzlat
6. Zikr
7. Tavajjuh
8. Sabr
9. Muroqaba
10. Rizo

Mazkur bosqichlar insonning ichki dunyosini poklash va ruhiy kamolotga erishish jarayonini ifodalaydi. Har bir bosqich solikning ma'naviy o'sishida muhim ahamiyatga ega. Tavba bosqichi insonning gunohlardan qaytib, Allohga yuz tutishini bildiradi. Zuhd esa dunyo ne'matlariga ortiqcha bog'lanmaslikni anglatadi. Tavakkul Allohga to'liq suyanish, qanoat esa mavjud narsaga rozi bo'lish fazilatini ifodalaydi. Uzlat solikning ma'naviy poklanish uchun jamiyat g'avg'olaridan vaqtincha uzoqlashishini bildiradi. Zikr Allohni doimiy ravishda yod etish orqali qalbni poklash jarayonidir. Tavajjuh esa qalbning butun e'tiborini Haqqa qaratish holatini anglatadi. Sabr solikning sinovlarga bardosh berish qobiliyatini bildirsa, muroqaba Alloh huzurida ekanligini doimo his etish holatidir. Nihoyat, rizo bosqichi solikning Alloh irodasiga to'liq rozi bo'lishi va ilohiy taqdirni qabul qilishi bilan yakunlanadi. Najmiddin Kubroning "Usul al-ashara" risolasi o'quvchiga tasavvufiy kamolotning mukammal nazariy modelini taqdim etadi.

Mazkur tasavvufiy qarashlar keyingi asrlar adabiyotida ham o'z badiiy ifodasini topgan. Tasavvufiy adabiyotda ko'pincha ramziy obrazlar, allegorik syujetlar va badiiy timsollar orqali murakkab falsafiy g'oyalar ifodalanadi. Qushlar timsoli tasavvufiy adabiyotda keng qo'llanilgan ramziy obrazlardan biridir. Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" va Rizoiy Payvandiyning "Qush tili" asarlarida qushlar soliklarning ramzi sifatida talqin qilinadi.

XVIII asr Markaziy Osiyo adabiy hayoti, ayniqsa Xorazm hududi, o'zining boy ilmiy va madaniy an'analari bilan ajralib turadi. Ushbu davrda Xorazm nafaqat siyosiy, balki ma'naviy va adabiy markazlardan biri sifatida shakllangan. Bu hududda tasavvufiy tafakkur, diniy bilimlar va badiiy adabiyot bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan.

Rizoiy Payvandi ana shunday muhitda yashab ijod qilgan shoirlardan biridir. Uning hayoti haqida aniq tarixiy ma'lumotlar ko'p saqlanib qolmagan bo'lsa-da, mavjud manbalar uning Xorazm adabiy muhitiga mansub bo'lgan tasavvufiy shoir ekanligini ko'rsatadi. Ayrim tadqiqotchilar uni tasavvuf ahli, xususan kubraviylik tariqatiga yaqin bo'lgan adib sifatida baholaydilar.

Rizoiy Payvandi ham o'z ijodida aynan shu an'anani davom ettiradi. Uning "Qush tili" dostoni tasavvufiy adabiyotning yorqin namunasi sifatida baholanadi. Asarda shoir insonning ma'naviy kamolot sari intilishi, ruhiy poklanish jarayoni va ilohiy haqiqatni anglash masalalarini badiiy obrazlar orqali yoritadi.

Shoirning tasavvufiy dunyoqarashi, shubhasiz, Qur'oni Karim, hadis ilmi va tasavvufiy risolalar ta'sirida shakllangan. Ayniqsa, Najmiddin Kubroning tasavvufiy qarashlari Rizoiy ijodida muhim o'rin egallaydi. Shu jihatdan Rizoiy Payvandi ijodi Xorazm tasavvufiy adabiy an'analarning mantiqiy davomidir.

Xususan, XVIII asrda yashab ijod qilgan Xorazm adabiy muhitining yirik vakillaridan biri Rizoiy Payvandiyning "Qush tili" dostoni ana shunday tasavvufiy-badiiy asarlardan biridir.

"Qush tili" dostoni o'zbek mumtoz adabiyotining tasavvufiy yo'nalishdagi yirik namunalaridan biri bo'lib, unda insonning ma'naviy kamolot sari intilishi, ruhiy poklanish jarayoni hamda Haq visoliga yetishish yo'li badiiy obrazlar orqali tasvirlangan.

Mazkur doston haqida dastlabki ilmiy tadqiqotlarni M. Imomnazarov amalga oshirgan. Olim o'z izlanishlarida doston qo'lyozmasi bilan Hamid Sulaymon nomidagi Qo'lyozmalar institutida tanishganini qayd etadi va ushbu asar o'zbek adabiyoti tarixida deyarli o'rganilmaganligini ta'kidlaydi.

Keyinchalik olima Shafolat Hasanova tomonidan doston ustida keng qamrovli ilmiy tadqiqot olib borilgan. U "Qush tili" dostonining qiyosiy-tekstologik tahlilini amalga oshirib, 2009-yilda uning ilmiy nashrini e'lon qilgan.

Sh. Hasanova tadqiqotlariga ko'ra, doston 8474 misra va 4237 baytdan iborat bo'lib, unda jami 156 ta sarlavha mavjud. Shulardan 66 tasi asosiy bob sarlavhalari, 33 tasi hikoyatlar nomlari, 53 tasi esa Qur'on oyatlari va hadislardan olingan arabcha iqtiboslardir. Bu holat asarning tasavvufiy, diniy va falsafiy mazmuni naqadar chuqur ekanligini va asarning murakkab kompozitsion tuzilishiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Doston o'z syujeti, kompozitsion tuzilishi hamda tasavvufiy-falsafiy mazmuni jihatidan alohida ahamiyatga ega. Unda qushlar timsolida soliklarning ruhiy kamolot sari yo'li tasvirlangan. Shu jihatdan "Qush tili" dostoni tasavvufiy ramziylikka boy bo'lgan epik asar sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Tadqiqotning Rizoiy Payvandiyning "Qush tili" dostonining o'n to'sha bilan bog'liq qismlari Qur'oni karim oyatlari va Najmiddin Kubroning "Usul al-ashara" risolasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi hamda ushbu uchta manbadagi tasavvufiy g'oyalarning o'zaro bog'liqligi yoritiladi.

Muhokama

Tasavvufiy ta'limotda insonning ma'naviy kamolot sari intilishi "suluk" deb ataladi. Suluk — bu solikning ruhiy sayohati bo'lib, u turli maqom va manzillar orqali amalga oshadi. "Qush tili" dostonida ham solikning ruhiy sayri markaziy syujet sifatida tasvirlanadi. Bunda qushlar — soliklar, Simurg' esa Haq timsoli sifatida talqin qilinadi. Qushlar Simurg'ni izlash uchun uzoq safarga o'tlanadi. Bu safar davomida ular turli qiyinchiliklar, sinovlar va ruhiy to'siqlarga duch keladilar. Tasavvufiy talqinga ko'ra, bu safar insonning o'z nafsini yengishi, qalbini poklashi va ilohiy haqiqatga yaqinlashishi jarayonini anglatadi.

Dostonning muhim jihatlaridan biri shundaki, Rizoiy ruhiy sayrni ikki bosqichga ajratadi:

1. o'n to'sha
2. yetti iqlim

Bu ikki bosqich solikning ruhiy kamolot jarayonini bosqichma-bosqich tasvirlash imkonini beradi.

O'n to'sha solikning ruhiy tayyorgarlik bosqichini ifodalasa, yetti iqlim ruhiy kamolotning yuqori darajalarini anglatadi. Bu tizim tasavvufiy ta'limotning nazariy asoslari bilan uyg'un holda qurilgan bo'lib, insonning ma'naviy kamolot sari intilishini badiiy uslubda mukammal tarzda ifodalaydi.

Bu jihat dostonning o'zigacha yaratilgan "Qushnoma"lardan syujet va kompozitsiyasiga ko'ra yangilanishini ko'rsatadi. Fariddin Attor va Alisher Navoiylar o'z asarlarida asosiy e'tiborni vodiylarga qaratgan bo'lsa, Rizoiy Payvandi solik uchun dastlabki ruhiy tayyorgarlik bosqichlarini muhim deb ko'rsatadi va o'n to'sha ayni solikning ruhiy tayyorgarlik bosqichlari etib belgilanadi.

Shu o'rinda "to'sha" so'zining lug'aviy va tasavvufiy ma'nolarini bilib o'tish biz uchun juda muhim. Payvandi Rizoiy nega aynan "o'n usul"ga nisbatan to'sha so'zini ishlatadi.

"To'sha" so'zi lug'aviy jihatdan hozirgi o'zbek adabiy tilida "Safar uchun hozirlangan oziq-ovqat, jangarma" ma'nolarida ishlatilgan ekan. **[O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 j. 548]** Tasavvufiy istiloh sifatida esa "Alloh tomonida inkor qilingan, badxulqlikdan forig' bo'lgan va yaxshi xulq xislatlarini kamol toptirgan solikning oxirat safari uchun tayyorlagan yuki" ma'nosida tushuniladi **[Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. 284]**. Har ikki ma'noda ham to'sha so'zi safar yuki bilan bog'liq ekan. Najmiddin Kubro risolalarida ham bu so'z ayni shu ma'noda qo'llanadi. Payvandi Rizoiy biror terminni tasodifan tanlagan emas, yo Qur'oni karim oyatlaridagi, yoki o'zigacha yashagan salafari risolalaridagi so'zlardan unumli foydalangan. To'sha so'zini tanlashda ham Kubro

risolalariga tayangan deya olamiz va ayni yetti iqlim tomon qushlar safari oldidan tayyorgarlik ma'nosida qo'llangan.

Dostonda o'n to'sha quyidagilardan iborat: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba, va rizo to'shalaridir. Mazkur to'shalar nomlari, tartibi va ularda ilgari surilayotgan tasavvufiy-falsafiy g'oyalar Najmiddin Kubroning "Usul al-ashara" risolasida bayon qilingan o'n asos bilan bevosita bog'liqdir. "Usul al-ashara"dagi o'n asos tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba va rizo maqomlaridir. Tasavvuf yo'lining ilk bosqichi tavba hisoblanadi. Tavba insonning o'z xatolarini anglab, gunohdan qaytishi va qalban Allohga yuz tutishini anglatadi. Tasavvuf ahli tavbani faqat tashqi amallar bilan cheklanadigan jarayon deb emas, balki qalbning chuqur poklanishi deb talqin qiladi. Tavba orqali inson nafsiy istaklardan voz kechib, ma'naviy yangilanish sari qadam qo'yadi. Tasavvuf ta'limoti islomiy manbalarga, avvalo Qur'oni Karim va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hadislariga tayanadi. Tasavvuf ahli uchun ruhiy kamolot yo'li shariat asoslari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, undagi barcha maqom va holatlar ilohiy vahiy va sunnat bilan izohlanadi. Shu sababli tasavvufiy asarlarda Qur'on oyatlari va hadislar keng qo'llaniladi. Tasavvuf yo'lining birinchi bosqichi hisoblangan **tavba** tushunchasi Qur'oni Karimda bir necha bor tilga olingan. Qur'on karimda shunday deyiladi: "Ey mo'minlar! Barchangiz Allohga tavba qilinglar, shoyad najot topsangizlar". (Nur surasi, 31-oyat) Mazkur oyat insonning ruhiy poklanishi tavba orqali boshlanishini ko'rsatadi. Tasavvufiy adabiyotlarda esa bu jarayon **nafsi poklash (tazkiya)** jarayonining ilk qadami sifatida talqin qilinadi.

Tasavvufiy talqinda gunoh yana qalbni xiralashtiruvchi omil sifatida izohlanadi. Qalb Allohning tajallisi tushadigan "oyna" sifatida talqin qilinadi. Har bir gunoh esa shu oynaga tushgan dog' yoki zang kabi. Natijada qalb pokligini yo'qotadi va ilohiy ma'rifat to'liq qabul qila olmaydi. Shuning uchun gunoh Allohni his qilish, zikrda huzur topish, ibodatdan lazzatlanishga xalaqit beruvchi "to'siq" deyiladi. "Parda" tushunchasi Allohdan ruhiy uzoqlik ramzidir. Tasavvuf ta'limotida ham tasavvufiy adabiyotda ham "parda" moddiy emas, balki ma'naviy holatni bildiradi. Banda gunoh qilgan sari qalbi bilan Alloh o'rtasida ko'rinmas devor paydo bo'ladi. Bu devor g'aflet, nafsga berilish, dunyoga haddan ziyod bog'lanish orqali kuchayadi. Natijada inson Allohdan uzoqlashadi, hatto ibodat qilsa ham, qalbida yaqinlik hissi bo'lmasligi mumkin.

Najmiddin Kubro gunohni ikki turga ajratib eslatadi: Zulm, yolg'on, shahvatga berilish kabi **dunyoviy gunohlar** va riyo, kibru havu, hasad kabi qalbni kasalliklarga chalintiruvchi **uhraviy gunohlar**. Tasavvufda, ayniqsa, bu gunoh turlarining ikkinchisi xavfli hisoblanadi. Najmiddin Kubro "Usul al-ashara"da soliklarga aytmoqchi bo'lgan jihat shuki, gunoh faqat jazoga sabab bo'ladigan moddiy amal emas, balki insonning eng katta boyligi — Alloh bilan bog'lanish imkonini to'sib qo'yadigan ma'naviy to'siqdir. Uning nazdida bu to'siq tavba orqali o'rtadan olib tashlanadi.

Payvandiy Rizoiy Najmiddin Kubroning **tavba va gunohning qalbgaga ta'siri** borasidagi fikrlarini o'z asarida badiiy obraz va timsollar bilan ham nazariy, ham amaliy jihatdan tushuntirishga harakat qiladi. Shoir tasavvufiy falsafani badiiy tasvirlar bilan uyg'unlashtirib beradi:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тасаввуфий ҳаёт. 2005. И.Ҳаққулов ва А.Бектош тарж. 261 Т.: Мовароуннаҳр.
2. Валихўжаев, Ботир. 1974. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. 166. Т.: Фан.
3. Имомназаров, Мухаммаджон. 1998. Хожа Қози Пайвандий Ризоий. Адабиёт кўзгуси. 76-81. № 1. Тошкент.
4. Мавлоно Хожа Қози Пайвандий Ризоий. 2009. Қуш тили. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Ш.Ҳасанова. 369. Т.: Tezkor-Press Print.

То'шай аввал yo'lida, ey rafiқ, Tavbadur gar istasang qat'i tariq. [Qush tili 74 bet]

Shoir baytda nido san'atidan mohirona foydalangan holda, solikka agar u tariqat yo'lini bosib o'tishni istasa, bu yo'ldagi eng birinchi "to'sha", ya'ni zarur oziq tavba ekanligi ta'kidlaydi.

Tasavvuf ta'limotida *tavba* — sulukning, ya'ni ruhiy sayrning boshlanish nuqtasi. Bunda solik, avvalo, o'z gunohlarini anglab, chin dildan pushaymon bo'lib, Allohga yuz tutadi. Tavbasiz qalb poklanmaydi, poklanmagan qalb esa haqiqatni qabul qila olmaydi. Asarda "to'sha" — ramziy obraz bo'lib, ruhiy safarning zaruriy sharti sifatida berilgan.

Yerga yetmas solike bu to'shasiz, O'ylakim, xurmo yetilsa xo'shasiz. [Qush tili 74 bet]

Rizoiy nazdida xurmo shoxsiz yetilmagani kabi tavbasiz solik manzilga yetolmaydi. Shoir shu o'rinda o'z fikrlarini asoslashda yana tasavvufiy timsollarga murojaat qiladi. Tasavvufiy adabiyotda xurmo mevasi solikning ruhan yetilgan holatining ramziy ifodasi bo'lsa, xurmo daraxtining shoxlari, ya'ni xo'sha esa ruhan yuksaltiruvchi sabab, vosita, natijaga eltuvchi zarur omil- tavbadir.

Tavba nedur, tark etib jurmu gunoh,

Bo'lmog'ing qilg'on gunohga uzrxoh. [Qush tili 76 bet]

Shoir ushbu bayt orqali tavba haqidagi boshlang'ich tushunchani ochib beradi. Tavba — faqat gunohni tark qilish emas, balki qalbning xatolarni tan olib, Alloh tomon yuzlanishi. "Uzrxoh" so'zi ichki poklanishni bildiradi. Rizoiy baytda "Tark etib jurmu gunoh" iborasiga kuchli urg'u beradi, o'quvchini o'z xatolari bilan yuzlashishga chaqiradi.

Jurm uldurkim, sanga bo'lg'ay hijob,

Ul quyoshdin, uylakim, xurdin saboh. [Qush tili 76 bet]

Xulosa. Payvandiy Rizoiy ushbu bayti xuddi Najmiddin Kubroning biz yuqorida tahlil qilgan fikrlarining badiiylashtirilgan masnaviy shaklidir. Har ikki asarda ham gunoh qalbni "hijob" — ya'ni pardasi bilan to'sib qo'yuvchi, Alloh nurining qalbgaga yetib kelishiga to'sqinlik qiluvchi shaxsiy gunohlar va illatlar sifatida talqin qilinadi. Baytda saboh, nur, quyosh istioralari tasavvufiy ma'no bilan uyg'unlashgan, Allohning nuri- ma'rifatni badiiy jihatdan ifodalab keladi.

Najmiddin Kubroning "Usul al-ashara" risolasida ham Payvandiy Rizoiyning "Qush tili" dostonida ham tavba to'shasi tasavvufiy jihatdan quyidagi g'oyaviy vazifalarni bajaradi:

1. Solikning ruhiy jihatdan uyg'onishi. Bunda inson o'z gunohlarini anglaydi.
2. Nafs bilan kurashning boshlanishi. Bunda tavba orqali nafsiy illatlardan voz kechiladi.
3. Ma'naviy poklanish. Bunda qalb Haq yo'lga tayyorlanadi.
4. Keyingi maqomlarga tayyorgarlik. Shoir nazdida, tavba bo'lmasa, boshqa maqomlarga o'tish mumkin emas.

Faqat Rizoiyning asari badiiy doston bo'lganligi uchun Najmiddin Kubro risolasidan farqli o'laroq tavba to'shasi butun ruhiy sayohatning boshlanish nuqtasi sifatida bir bob va bobning mazmunini aks ettiruvchi hikoyat orqali talqin qilinadi.

5. Маллаев, Натан. 2021. Ўзбек адабиёти тарихи. 408. Т.: Kafolat print company.

6. Ҳасанова, Шафоат. 2016. "Тўтинома" ва "Қуш тили" туркумидаги асарларнинг қиёсий-типологик ва текстологик тадқиқи. Фил.ф.д...дисс. Т.:

7. Ҳасанова, Шафоат. 2006. Мавлоно Хожи Қози Пайвандий Ризоийнинг "Қуш тили" достони ва унинг қиёсий-текстологик тадқиқи. 104. Т.: ЎзР ФА Давлат адабиёт музейи.